



**MONTESSORI METODIKASI ASOSIDA MAKTABGACHA
YOSHDAGI BOLALARDA MANTIQIY FIKRLASH JARAYONINI
RIVOJLANTIRISH**

Namangan davlat universiteti o'qituvchisi.

Do'sbayeva Shaxnoza Abdurahimovna

ANNOTASIYA: Mazkur ilmiy maqolada Mariya Montessori metodikasining pedagogik va psixologik asoslari hamda ushbu metodikaning maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishdagi o'rni kompleks tahlil etilgan. Tadqiqotda bolalarning ongli fikrlash, tahlil qilish, taqqoslash, guruhlash kabi kognitiv jarayonlarini rivojlantirishda Montessori muhitining tuzilmasi va unga xos didaktik materiallarning ta'siri o'rganilgan. Montessori metodikasining an'anaviy ta'lim yondashuvidan farqli jihatlari, xususan, bolaning mustaqil faoliyatini rag'batlantirish, individual yondashuv va erkin tanlov imkoniyatlari orqali intellektual rivojlanishga erishish kabi afzalliklari amaliy misollar asosida ko'rsatib berilgan. Maqolada mavjud tajriba va kuzatuv natijalari asosida Montessori yondashuvining samaradorligi asoslangan, shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalari uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari ushbu metodikaning maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni shakllantirishda muhim vosita ekanini tasdiqlaydi.

KALIT SO'ZLAR: Montessori metodikasi, mantiqiy fikrlash, ta'lim muhiti, didaktik o'yinlar, kognitiv rivojlanish, pedagogik innovatsiyalar, maktabgacha ta'lim, mustaqil faoliyat.

АННОТАЦИЯ: В научной статье дан комплексный анализ педагогических и психологических основ методики Марии Монтессори и роли этой методики в развитии навыков логического мышления у детей дошкольного возраста. В исследовании изучалось влияние структуры среды Монтессори и ее конкретных дидактических материалов на развитие познавательных процессов детей, таких как осознанное мышление, анализ, сравнение и группировка. На



практических примерах показаны преимущества методики Монтеessori перед традиционным подходом к образованию, в частности, поощрение самостоятельной деятельности ребенка, достижение интеллектуального развития через индивидуальный подход и свободный выбор. В статье представлена эффективность Монтеessori-подхода на основе имеющегося опыта и результатов наблюдений, а также разработаны методические рекомендации для дошкольных образовательных учреждений. Результаты исследования подтверждают, что данная методика является важным инструментом развития логического мышления у детей дошкольного возраста.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *методика Монтеessori, логическое мышление, образовательная среда, дидактические игры, познавательное развитие, педагогические инновации, дошкольное образование, самостоятельная деятельность.*

ANNOTATION: *This scientific article provides a comprehensive analysis of the pedagogical and psychological foundations of Maria Montessori's methodology and the role of this methodology in the formation of logical thinking in preschool children. The study studies the structure of the Montessori environment and the impact of its specific didactic materials on the development of cognitive processes in children, such as conscious thinking, analysis, comparison, grouping. The differences between the Montessori methodology and the traditional educational approach, in particular, the advantages of stimulating the child's independent activity, achieving intellectual development through an individual approach and free choice, are shown on the basis of practical examples. The article, based on the results of existing experience and observations, substantiates the effectiveness of the Montessori approach, and also develops methodological recommendations for preschool educational institutions. The results of the study confirm that this methodology is an important tool in the formation of logical thinking in preschool children.*

KEYWORDS: *Montessori methodology, logical thinking, educational environment, didactic games, cognitive development, pedagogical innovations, preschool education, independent activity.*



Kirish. Yurtimizda maktabgacha ta'lim sohasiga bo'lgan e'tiborning amaliy faoliyati bugungi ijtimoiy iqtisodiy faoliyatlari va hukumatimiz tomonidan mazkur sohaga oid bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilinishida ko'rishimiz mumkin. Mazkur amalga oshirilayotgan qaror va farmonlar maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish orqali maktabgacha ta'lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish hamda moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlashni maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni kengaytirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantirish, ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari belgilab qo'yilmoqda. Maktabgacha ta'lim davri har bir bolaning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishi jarayonlaridagi muhim bosqichlardan biri hisoblanib, ayniqsa, bu yoshdagi bolalarning mantiqiy fikrlash asoslari aynan shu davrda shakllana boshlagani uchun bu davrda bola rivojlanishiga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Bolalarning bu davrdagi rivojlanishlarini Mariya Montessori tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik metodika orqali rivojlantirish va bolaning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda, uning tabiiy rivojlanishiga ko'maklashishga amaliy yordam berishini kuzatishimiz mumkin. Bu esa Mariya Montessori metodikasining bola rivojlanishi uchun muhim metodik asos vazifasini bajarishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Ushbu maqola orqali Montessori metodikasining pedagogik va psixologik asoslari, didaktik yondashuvi hamda maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishdagi samaradorligi tahlil etiladi. Montessori ta'lim tarbiya jarayonida bolalarni ko'pincha ikki toifaga iqtidorli va iqtidorsizga bo'lishlariga guvoh bo'ladi. Ayrimlar buni qoida deb ham biladi. Biroq Montessori xonim har qaysi bolada qandaydir iste'dod, iqtidor va o'rganishga ishtiyoq bo'lishiga astoydil ishongan va bu jarayoni o'zining faoliyatida o'rganishga harakat qildi. Uning fikricha "Bolalar biz kattalarga ajoyib saboq beradi — aqlimizni rivojlantirish va muayyan shaklga solish uchun qo'llarimizni ishlatishimiz shart ekan", deb e'tirof etadi.



Dastlab Maktabda amalga oshiriladigan ta'lim-tizimini o'rganilganda maktabda o'rtacha 50–60 nafar bola qabul qilinib, ko'pincha, 2–3 hamda 6–7 yashar bolalar o'qitilgan. Sinfxonalari esa juda oddiy: o'qituvchi stoli, yozuv doskasi, mitti stulchalar, kreslo va bolalar stoli, o'quv materiallari uchun javondan iborat bo'lgan. Mashg'ulotlarni ham ota-onalarning aksari kutganidek “mo'jizakor”, “sehrli” emas, balki behad sodda va botartib - kiyinish va yechinish, changlarni artish, supur-sidir, mo'jaz bog'chadagi gul, nihollarni parvarishlash, mitti jonivorlarni boqish, ovqat tayyorlash - tarzda tashkil etilgan. Bolalarga nimani qanday o'rgatish texnikasi va psixologiyasini o'rgangach, darsliklarni Montessori xonimning o'zi yozadi. Biroq hammani hayron qoldirib, mashg'ulotlarni xonim emas, balki yordamchi o'qituvchilar, murabbiyalar tashkil etar edi, direktor esa kuzatish-o'rganish va yangiliklar kiritish bilan cheklangan.

Montessori xonim esa pedagogikada eng avval his-tuyg'uni rivojlantirishi zarur degan qoidani ilgari surgan. Ehtimol, ayni shu qarashlari sababli ta'lim sistemasida inqilobiy holatlarni vujudga kelgan. U tuzgan darsliklarning bari o'yin va harakatli mashg'ulot orqali bola hissiyotini tashqariga chiqarishga moslashtirilgan bo'lib, o'qituvchilarga ham kitobni shunchaki zerikarli ohangda o'qish emas, bilgan-ko'rganini quruq gap, bayoni bilan cheklanmasdan, o'yin va taqdimotlar orqali ko'rsatish, o'rgatishga talab qo'ygan. Oradan yetti yilcha o'tgach, nihoyat butun dunyoga Montessori metodi sirlarini ochib berguvchi va boshqalarni ruhlantiruvchi dastlabki kitob yozila boshlandi.

Montessori metodining eng afzal taraflaridan biri sifatida - bolaning turli qoliplarga solinmasligi bilan e'tirof etiladi. Sinf xonasi, maktabdagi erkinlik bolajonni darslarda faol bo'lishga ruhlantiradi, amaliy mashg'ulotlarga bajonidil sho'ng'ishga undagan va eng muhimi, bola bevosita o'zini o'zi tarbiyalay oladi. Kingadir tartibsiz va nazoratsiz tuyulgan maktab faoliyati va uslubi vaqti kelib o'z imkoniyat mevasini beradi. Maktab faoliyatini amalga oshirishda u o'z faoliyatida oltin qoidalariga e'tibor bergan va ularni nazorat qilgan.

Quyuda Montessori maktabining oltin qoidalari bilan tanishib chiqsak:



- Bola faol bo'lishi muhim. Uning ulg'ayishida kattalar ikkinchi o'rinda tursin, rahbar emas, ko'makchi bo'lsin;
- Erkin harakat va bola tanlovi;
- Katta bolalar o'zidan kichiklarga bilganini o'rgatsin. Ayni shu odat boshqalar haqida g'amxo'rlik qilish ko'nikmasini shakllantiradi;
- Bola qarorni o'zi chiqarsin;
- Mashg'ulotlar maxsus hozirlangan muhitda o'tilishi shart;
- Kattalarning burchi — bolani qiziqтира bilish. Keyin bolaning o'zi rivojlanib ketaveradi;
- Bola ichidagi iste'dodni to'liq ko'rsatishi uchun unga erkin fikrlash, harakat va tuyg'u imkonini berish kerak, xolos;
- Bolani tabiatdan bezdirish emas, do'st qilish kifoya;
- Uni tanqid qilmang, qandaydir taqiq, cheklov bilan bo'g'mang;
- Xato qilishga har bir bolaning haqqi bor. Uni to'g'rilashni ham o'ziga qo'yib bering.

Montessori pedagogikasida bola to'laqonli shaxs sifatida qoraladi. Unga nisbatan hurmat, erkinlik va individual yondashuv asosiy prinsiplar sifatida belgilanadi. Metodikaning nazariy asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

Senzitiv davrlar nazariyasi – bola ma'lum ko'nikma yoki qobiliyatni egallashga tayyor bo'lgan maxsus davrlarga ega. Mantiqiy fikrlashni shakllantirish uchun 3–6 yosh oralig'i eng maqbul bosqich hisoblanadi.

Muhitning roli – bolaning rivojida uni o'rab turgan muhit hal qiluvchi ahamiyatga ega. Montessori metodikasida maxsus tayyorlangan, tartibli, xavfsiz va erkinlikka asoslangan muhit yaratiladi.

Avtonomiya va mustaqillik – bola faol tanlov qilish, xatolarini o'zi to'g'rilash va tajriba asosida o'rganishga yo'naltiriladi. Bu yondashuv bolada tahliliy fikrlash, sabab-oqibat bog'lanishini tushunish kabi qobiliyatlarni shakllantiradi.

Montessori metodikasida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish vositalari

1. Didaktik materiallar orqali rivojlantirish. Montessori materiallari bolaning mantiqiy fikr yuritishini rag'batlantiradigan shaklda yaratilgan. Sensor motorikani



rivojlantiruvchi sensorika materiallari – shakl, rang, o'lcham va og'irlikni farqlash orqali guruhlash va solishtirish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Matematik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun Matematika materiallardan foydalanish – sanash, taqqoslash, arifmetik amallarni bajarish orqali mantiqiy ketma-ketlikni o'rgatish orqali ham rivojlantirish mumkin.

2. Bola rivojlanishida muammoli vaziyatlar yaratish orqali ham ularni rivojlanish jarayonlariga tasir eta olish immoniyati mavjud. Tarbiya jarayonida bolaga muammoli vazifalar taklif etiladi: "Agar bu shakl bu joyga mos kelmasa, qayerga joylash mumkin?", "Agar senga 3 dona berilgan bo'lsa va 1 tasini bersang, nechta qoladi?" kabi savollar bolani mulohaza yuritishga undaydi.

3. Mashg'ulotlarni tashkil etishda taqqoslash, saralash va sababiy bog'lanish kabi o'yinlari ha masalan "Nega?", "Nima uchun?" kabi savollar asosida olib boriladigan turli mashg'ulotlar orqali mantiqiy fikrlashlarini faollashtirishga erishish mumkin.

4. Bolalarni rivojlantirishda raqamli va mantiqiy rivojlantiruvchi o'yinlarga ham Montessori alohida e'tibor berdi. U pedagogik faoliyatda o'yinlarni toifalarga ajratish, ketma-ketlikni aniqlash, to'g'ri joylashtirish kabi jarayonlar orqali algoritmik fikrlashni shakllantirishda ahamiyatini alohida takidlagan.

Amaliy tadqiqotlar natijalari. Mantessori tadqiqotlarini amaliyotga joriy etish va bolalarni rivojlanishiga bevosita tasir ko'rsatishda bizni respublikamizda ham bir qator amaliy tadbirlar va muassasalar faoliyati yo'lga qo'yildi. Muhammad Rasul o'z pedagogic faoliyatini 2024-yil may oyida O'zbekistonga qaytgacha Dildora Kalonxo'jayeva bilan birgalikda Toshkent xalqaro Montessori maktabiga asos solgan. Shu bilan birga, 2024-yil sentyabr oyida "Bambini" platformasini ishga tushirgan. Hozirda Toshkent xalqaro Montessori maktabida asosiy strategik qarorlar va loyihalar bilan ishlaydi, u o'z so'zida faoliyatini - "Yetakchi gid sifatida sinfda bolalar bilan ishlayman. Bundan tashqari, ota-onalar bilan doimiy muloqot, tashkilotchilik vazifalari, bolalar qabuli va ularning moslashish jarayoni kabi mas'uliyatlar mening bo'yimda. Aytish kerakki, ota-onalarning aksariyati O'zbekistonda Montessori tizimi haqida tasavvurga ega emas va bu tabiiy hol. Maqsadim har bir o'zbek ota-onasi



Montessori haqida eshitishi, ularga tizim falsafasini yetkazish, uyda farzandiga inson sifatida muomala qilishi va hurmat bilan munosabatda bo'lishiga erishishdan iborat"¹ deb ifodalaydi.

Xulosa o'rnida Mehr va muhabbatga asoslangan muhitni yaratish, xavfsiz va sog'lom munosabatlarni shakllantirish, bolalarni urmasdan, ularga baqirmasdan, ularni boshqalarga solishtirmasdan, ularni kamsitmay emotsional holatiga e'tibor berib tarbiyalash orqali yordam berish mumkin. Ushbu raqamlar Montessori metodikasining maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishdagi samaradorligini isbotlaydi. Montessori metodikasi bolaning tabiiy rivojlanishini hisobga olgan holda, uni erkin, mustaqil va faol shaxs sifatida tarbiyalaydi. Ayniqsa, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda senzitiv davrda berilgan to'g'ri ta'lim va muhit hal qiluvchi omil hisoblanadi. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, Montessori metodikasi bilan ta'lim olgan bolalar an'anaviy ta'lim olgan tengdoshlariga nisbatan yuqori mantiqiy salohiyatga ega bo'ladi. Ota-onalarni ushbu metodika bilan tanishtirish va uyda qo'llab-quvvatlash usullarini targ'ib qilish. Montessori metodikasining milliy ta'lim tizimiga moslashtirilgan modelini ishlab chiqish va ilmiy asoslash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Montessori, M. (2015). *Ilk bolalikdagi ta'lim*. Toshkent: "Yangi asr avlodi" nashriyoti.
2. Lillard, A. S. (2005). *Montessori: The Science Behind the Genius*. Oxford University Press.
3. Ziyatdinova, M. (2021). Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv qobiliyatlarni shakllantirishda zamonaviy metodlarning o'ri. *Pedagogika va psixologiya*, №4, 45–50.
4. Sharipova, D. (2020). Montessori ta'lim tizimi: pedagogik va psixologik asoslari. *O'zbekistonda maktabgacha ta'lim*, №2, 30–34.
5. Jalilova, S., & G'ulomova, N. (2022). Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish. *Ilm-fan va taraqqiyot*, №3, 55–59.

¹ <https://daryo.uz/2024/12/11/montessori-talim-tizimi-haqida-zamonaviy-ozbek-bogcha-akasidan-ikki-ogiz-soz>



6. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. (2021). *Maktabgacha ta’limda innovatsion yondashuvlar*. Toshkent: O‘quv-metodik markazi.
7. Isaqulova, N. (2019). Montessori muhitining bolalar rivojiga ta’siri. *Ta’lim va amaliyot*, №5, 22–2
8. Asranbayeva, M. H. (2024). INKLYUZIV TA’LIM TIZIMIDA IMKONIYAT CHEKLANGAN O’QUVCHILARNI O’QITISHGA LINGVOPEDAGOGIK YONDASHUV. *Academic research in educational sciences*, 5(CSPU Conference 1), 331-336.
9. Asranbayeva, M. (2024). MUSTAQIL TA’LIM O’QUV FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 1(12), 505-508.
10. Halimjanovna, A. M. REPUTATION AND PERSONAL EXAMPLES OF PARENTS IN SINGLE-PARENT FAMILIES.
11. Asranbayeva, M. H. (2024). INKLYUZIV TA’LIM TIZIMIDA IMKONIYAT CHEKLANGAN O’QUVCHILARNI O’QITISHGA LINGVOPEDAGOGIK YONDASHUV. *Academic research in educational sciences*, 5(CSPU Conference 1), 331-336.
12. Asranbayeva, M. (2024). MUSTAQIL TA’LIM O’QUV FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 1(12), 505-508.
13. Асранбоева, М. Х. (2016). СТРЕССОУСТОЙЧИВОСТЬ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ КАК КОМПОНЕНТ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ СПОСОБНОСТИ. *NovaInfo. Ru*, 2(45), 303-305.
14. Abduqodirov, A. A. O. G. L., & Kamolova, A. O. Q. (2025). Muzeylarning inson ongiga ta’siri va ijtimoiy roli. *Science and Education*, 6(3), 191-194.
15. Ahmadjonova, D., & Kamolova, A. O. Q. (2025). Neyrografika mashg ‘ulotlari orqali ongosti muammolarini yechish va maqsadga erishish usullari tadqiq etish. *Science and Education*, 6(3), 355-360.